

## YUNON-FORS URUSHI SABABLARI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**  
SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**  
SHDPI 1-KURS TALABASI **Toyirov Sheralixon**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Normo'Minov Dilbek**

**Annotatsiya:**Maqolada Yunon-Fors urushlarining tarixiy ahamiyati, sabablari va natijalari tahlil qilinadi. Bu urushlar Miloddan avvalgi 5-asrda Yunon shaharlari bilan Fors imperiyasi o'rtasida sodir bo'lib, butun Yaqin Sharq va Gretsiya madaniyatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Urushlar, asosan, Fors podshosi Kambiz va Kserksning yunonlarga qarshi yurgizgan harbiy yurishlaridan iborat bo'lib, yunonlarning Thermopylai, Salamis va Plateya kabi muhim janglarida yirik g'alabalar qozonishi bilan ajralib turadi. Maqola, shuningdek, Yunon-Fors urushlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlariga ham to'xtaladi.

**Kalit so'zlar:** Yunon-Fors urushlari, Fors imperiyasi, Yunonlar, Kserks, Thermopylai, Salamis, Plateya, urush sabablari, tarixiy oqibatlar.

Afina va Eritriyaning qo'zg'olonchilarga ko'rsatgan ozgina yordami Doro I ga Bolqon Yunonistonsiga qarshi birinchi yurishni boshlash uchun bahona bo'lgan. Er.av. 492 yilda quruqlikdagi ko'p qo'shin va harbiy flot Eron podshosining kuyovi Mardaniy qo'mondonligida Yunonistonni istilo qilishga yuborilgan. Eron quruqlik qo'shini Gellespotdan kechib o'tib, Egey dengizining Frakiya sohili bo'ylab yurgan. Dengiz floti sohili bilan suzib Fasos orolini zabt etgan. Frakiyaliklar Eronni ancha zaiflashtirgan. Eron floti dengiz bo'ronida qolib, ko'p qismi yakson bo'lgan. Mardaniy Yunonistonga yetolmasdan orqaga qaytgan. Eron shohi shundan keyin Yunonistonga elchi yuborgan va Eron davlatini o'z ustlaridan hukmronligini tan olishni talab etgan va forslarga rasman bo'ysunganlar. Demokratik Afina va aristokratik Sparta Doro I talabalariga ochiq qarshi chiqqan. Afina Eron elchilari qoyadan uloqtirilgan. Spartada Eron elchilari quduqqa tashlangan. [1]

Er.av. 490 yilda Eron Yunonistonga qarshi ikkinchi yurish boshlagan. Eron flotiga tajribali qo'mondon Datis qo'mondonlik qilgan. Evbeyaga desant tushirib, Eritriyani tormor qilgan, so'ngraAttikaga yo'l olgan. Forslarga xizmat qilayotgan Gippiy maslahati bilan Datis Afinadan 42 km beridagi Marafon qishlog'iga o'z qo'shinini tushirgan. Greklarda yakdillik bo'lmagan. Eron qo'shinining Maravonga tushirilgani ma'lum bo'lgach, Afina xalq yig'ini forslarning Afinaga hujumini kutmasdan, Marafon yonida jang boshlashga qaror qilgan. Spartaliklarni yordamga chaqirgan. Greklar qo'shini 10 ming kishiga yetgan va unga II ta strateg qo'mondonlik qilgan. Eron qo'shini otliq askarlar va piyoda kamonchilardan iborat bo'lib, grek qo'shinidan ko'p bo'lgan. Ilgari Eron qo'shinida xizmat qilgan strateg Miltiad birinchi bo'lib xujum qilish fikrini amalga oshiradi. shiddatli jangda greklar g'olib chiqqan, hatto Afinaliklar forslarning yetti kemasini qo'lga tushirganlar. Miltiad forslarning niyatini payqagan. Forslar himoyasi Afinaga qarab suzgan edilar.[2] U qisqa yo'l bilan Afinaga qo'shinni o'tkazgan. Afinaga (Marafoncha yugurish shundan kelib chiqqan) chopar yuborilgan. Chopar yetib borib "Quvoninglar biz yengdik!" deb shu zahoti yuragi yorilib o'lgan. G'oliblar Afinaga kelib port va gavanlarni himoyasiga turganlar. Eron floti xujum qilishga jur'at qila olmagan va qaytib ketgan. Sparta otryadi yordamga yetib kelgan. [3] Afinaliklarning Marafon yonida forslarning kuchli desanti ustidan g'alaba qozonganligi katta ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Eronga qarshi xalq harakati kuchaygan. Eron Yunonistonni istilo qilishdan voz kechmagan. G'alayonlar uni vaqtincha to'xtatib

turgan. Er.av. 486 yilda Doro I o'ladi. Greklar bu nafasni rostlab olishdan foydalana olmagan. Eronning yana xujumi yaqinlashgach, Fessaliya bilan Beotiya Eron podshosini tan olgan. Peloponnes o'z betarafligini e'lon qilgan.

Eronga qarshi kurash taktikasida Afinada bahs bo'lgan. Qishloq jamoasi, yer egaligi quruqlikda, savdo-hunarmand ahli flotni kuchaytirish tarafdorlari edilar. Flotni kuchaytirish tarafdorlari Felistokl, quruqlikda jang qilish tarafdorlari Aristid tarafdorlaridan ustin chiqqanlar. (Er.av. 483-482 yillarda Aristid ostrakizm yordamida Attikada quvilgan) Attikaning janubidagi Lavrion kumush konlaridan qazib olingan kumushlar flot qurishga sarflangan. Er.av. 430 yilga kelganda Afina Yunonistonda eng kuchli flotga ega bo'lganki, bu flotda 180 triyer tez suzuvchi harbiy kemalar bor edi.

Forslar Yunonistonga qarshi uchinchi yurishiga katta tayyorgarlik ko'rishgan. Qo'shinlar tag'in Egey dengizining ilgari zabt etilgan shimoliy sohili bo'ylab borishi lozim edi, flot esa qirg'oq bo'ylab suzib borishi kerak edi. Flotning halok bo'lmasligi uchun. Akte burni yonidagi kema qatnaydigan torroq kanal qazildi. Gerodotning ma'lumotiga ko'ra Yunoniston barcha kuchlari 5283220 kishi bo'lgan. Bu albatta mubolag'a. Eron shohi Kayxisrav o'sha davrda 150 ming kishi to'play olishi mumkin edi.

Yunonistonda urushdan avval hammani vahima bosdi. Er.av. 481 yilda Afina bilan Sparta o'rtasida ittifoq tuzilib, bu ittifoqqa ko'pgina grek polislari kirdi.

Er.av. 480 yilda forslarning Yunonistonga uchinchi yurishi boshlandi va Kayxisravning o'zi boshchilik qildi. Fors qo'shini yozda Makedoniyaga yetib keldi. Makedoniya bilan Fessaliya Kayxisravga itoat qilishdi. Flot Shimoliy Yunonistonga chiqib oldi. Greklar fors qo'shinini Fessaliya bilan Yunoniston chegarasida kutmoqchi edi. Fessaliya forslar tomoniga o'tgach, greklar chekinib, Fessaliya bilan O'rta Yunoniston orasidagi "Fermopil yo'lagi" yonida mudofaa tutganlar. Greklar qo'shiniga Sparta podshosi Leonid qo'mondonlik qilgan. Fermopil yonida greklarning 7200 ta qo'shini bo'lgan. Leonid o'z qo'shinlari bilan ikki kun forslar xujumini qaytargan. Lekin bir xoin forslarga aylanma yo'lni ko'rsatib bergan. Leonid hamma grek otryadlariga chekishni buyurgan. Lekin o'zining 300 spartalik askari va bir oz serg'ayrat kishilari bilan forslarga qarshi qattiq jang qilib uchinchi kuni halok bo'lgan. 271 ta Triyerdan iborat ittifoqchi grek floti Efbeya oroli yonida uzoq dengiz jangi olib borgan. Leonidning halok bo'lgach, grek floti janubga chekingan.

Salamin bo'g'ozida grek floti Eron flotini tor-mor qilgan va urushning borishida tub burilish yasagan. Kayxisrav Kichik Osiyoga ketib qolgan. Er.av. 479 yilda mardoniy boshchiligidagi fors qo'shini Attikaga bostirib kirgan va qisqa muddatda Afinani ishg'ol qilgan.

Sparta qo'shini yetib kelgach, forslar Attikadan Beotiyaga chekingan. Forslar greklarini birlashgan qo'shinga xujum qilgan. Forslar yengilgan, Mardoniy halok bo'lgan. Forslarning qolgan qismi Fessaliya orqali Frakiyaga chekingan. Greklar qo'liga g'oyat katta o'lja tushgan. Urush Yunoniston doirasidan chiqqan Qora dengiz bo'g'ozida va dengiz doirasiga chiqqan. Samos, Xios, Lesbos orollari grek ittifoqiga qo'shilgan. Samos oroli bilan Kichik Osiyodagi Mikole buruni o'rtasida Eron flotining qoldig'i yakson qilingan.

Er.av. 478 yilda urush harakati Vizantiy rayoniga ko'chgandan keyin Sparta urushdan chiqqan. Afina greklar qo'shiniga bosh bo'lib qolgan.

Yunon-Fors urushlari tarixiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat Gretsiya va Fors imperiyalarining siyosiy va harbiy kurashini, balki butun Yaqin Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarni ham shakllantirdi. Yunonlarning Fors imperiyasiga qarshi g'alabalari, xususan Salamis va Plateya janglaridagi muvaffaqiyatlari, yunon demokratik tizimining davom etishiga, shuningdek, G'arb tsivilizatsiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Urushlarning natijalari Fors imperiyasining siyosiy kuchini zaiflashtirdi, yunon

shaharlari esa o'zlarining mustaqilligi va madaniy merosini saqlab qoldi. Shu tariqa, Yunon-Fors urushlari nafaqat ikki imperiyaning kurashini, balki butun dunyo tarixining istiqboliga katta ta'sir ko'rsatgan muhim voqealar bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLADI.
3. F.BOYNAZAROV. QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.

18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – С. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – С. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
21. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san'ati . Toshkent .2018.
22. Бобожонов, Бехруз Баҳодир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351